



**O'RMONLARDAN FOYDALANISH, FOYDALANISH
HUQUQINING VUJUDGA KELISH ASOSLARI VA HUQUQIY
MUHOFAZASI**

Ilmiy rahbar: Umurzakova Nargisaxon Muxtarovna

Toshkent davlat agrar universiteti "Huquqshunoslik" kafedrasida dotsenti

O'mirzaqov Dilshod Olimjon o'g'li

*Toshkent davlat agrar universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich
talabasi*

Usmonov Bunyodbek Baxromovich

*Toshkent davlat agrar universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich
talabasi*

Email: umirzaqovdilshod08@gmail.com.

Tel raqam: +998 88-295-05-80

Anotatsiya: Mazkur maqolada o'rmonlardan foydalanish, foydalanishning turlari va vujudga kelish asoslari, shuningdek o'rmonlardan foydalanish huquqining va o'rmonlarning huquqiy himoyasi haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: Huquqiy himoya, foydalanishning turlari, o'rmon fondi, ekologik turizm, foydalanish huquqi, chegara zonasi.

Annotation: This article discusses the use of forests, the types of use and the basis for their emergence, as well as the right to use forests and the legal protection of forests. into English.

Key words: Legal protection, types of use, forest fund, ecological tourism, right of use, border zone.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования лесов, виды использования и основания для их возникновения, а также право на использование лесов и правовая защита лесов.

Ключевые слова: Правовая защита, виды использования, лесной фонд, экологический туризм, право пользования, приграничная зона.



O'rmon - o'rmon fondi yerlaridagi o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega daraxtlar, butalar va boshqa tabiiy obyektlar (yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) majmui hisoblanadi. "O'rmonlar — tabiatning bitmas-tuganmas xazinasi, butun Yer sayyorasining musaffo havosini ta'minlovchi hayotiy «o'pkasi»dir. Ular nafaqat biologik xilma-xillikni saqlaydi, balki insoniyatning iqtisodiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xomashyo manbai hamdir. Biroq, globallashuv va ekologik inqirozlar davrida bu bebaho boylikni shunchaki iste'mol qilish emas, balki uni huquqiy tartibga solish va davlat himoyasiga olish dolzarb vazifaga aylandi. O'rmon fondidan oqilona foydalanish va ularni qonuniy muhofaza qilish — kelajak avlod uchun yashil va xavfsiz muhit qoldirishning yagona kafolatidir. Shunday qilib o'rmonlar bu bizning hayotimizning bir qismi hisoblanadi. O'rmonlardan foydalanish huquqi, tabiat obyektlarini kesib olish, ularni muhofaza qilish va ularni boshqa maqsadlar uchun ishlatishda tabiatga zarar yetkazmagan holda amalga oshirishdir . Bu ekologik vazifalarni hamda cheklangan xo'jalik yuritish masalalarini amalga oshirish va o'rmonlarni qonun bilan muhofaza qilishni maqsad qiladi. O'zbekiston Respublikasi O'rmon to'g'risidagi qonunning 36-moddasiga muvofiq O'rmondan foydalanishning quyidagicha turlari bor:

- 1) daraxtzorlar va butazorlarni kesish;
- 2) pichan o'rish;
- 3) chorva mollarini o'tlatish;
- 4) asalari uyalari va qutilarini joylashtirish;
- 5) yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va texnik xom ashyosini yig'ish hamda tayyorlash;
- 6) yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig'ish va tayyorlash;
- 7) daraxt va butalarni kesmagan holda o'tin va shox-shabballarni yig'ish;



8) oʻrmon-ovchilik, ovchilik va (yoki) baliqchilik xoʻjaliklari ehtiyojlari uchun foydalanish;

9) ilmiy-tadqiqot, madaniy-maʼrifiy, tarbiyaviy, sogʻlomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanish;

Oʻsimlik dunyosiga davlat oʻrmon fondi yerlarida, shuningdek oʻrmon fondiga

kirmaydigan aholi yashaydigan joylardagi yashil oʻrmonlarda hamda transport magistrallarida ixtiyoriy ravishda pichan oʻrish va chorva mollarini oʻtlatish natijasida yetkazilgan zarar uchun toʻlovlar miqdorini hisoblash uchun Chorva mollarini Oʻrmon fondiga kirmaydigan aholi yashash joylaridagi yashil oʻrmonlar (daraxt-buta oʻsimliklari) hamda transport magistrallari boʻylarida oʻzboshimchalik bilan oʻtlatib zarar yetkazilganda har bosh qoramol, eshak, ot, tuya, qoʻy uchun Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan 0,3 miqdorida belgilangan. Shuningdek, turkumlash usullari va shartlari oʻrmonlar turi, ularning joylashuvi va oʻzgaruvchanliklari, shuningdek, ularni qanday foydalanishni rejalashtirish lozimligi boyicha huquqiy va ekologik tartibot asosida belgilanadi. Bu tartibotlar, oʻrmonlardan foydalanishning adolatli va barqaror ravishda amalga oshirilishini taʼminlaydi va tabiatning muhofazasi va ekologik ravishda xavfsizligini kafolatlaydi. Oʻrmonlarni kengaytirish, ularni asrab-avaylash, oqilona foydalanish uchun amaliy tadbirlar oʻz samarasini beradi. Oʻrmonchilikning rivojlanishi mamlakatimizning tarixiy va turmushini rivojlantirishi uchun ahamiyatli roʻl oʻynaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi PF-5041-son “Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrmon xoʻjaligi davlat qoʻmitasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi farmoni hamda 2017-yil 11-maydagi PQ-2966-son “Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrmon xoʻjaligi davlat qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq respublikada oʻrmon fondini muhofaza qilish, koʻpaytirish, undan oqilona foydalanish boʻyicha qator tashkiliy va amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, qurgʻoqchilik va choʻllanishga hamda eroziyaga qarshi 582,6 ming gektar,



shu jumladan, Orol dengizining qurigan tubida 507,2 ming gektardan ortiq maydonda o'rmon barpo etildi. 1436,4 tonnadan ortiq har xil turdagi daraxt va butalar urug'i, 108,8 mln dona nihol va ko'chatlar tayyorlanib, 2786 gektar maydonda niholxona va ko'chatxona tashkil etildi. Madaniy holda yetishtiriladigan dorivor va ozuqabop o'simliklar turlari 61 turga yetkazilib, 3 ming gektar maydonda dorivor o'simliklar plantatsiyasida 4,5 ming tonnadan ortiq dorivor va ozuqabop o'simliklar xom ashyosi tayyorlanib, 2,2 ming tonnadan ortiq xom ashyo yetkazib berildi. Shu bilan birga, o'tgan yillar davomida to'plangan tajriba va amalga oshirilgan ishlar tahlili, sohada aniqlangan yangi muammo va kamchiliklar ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'rmonlardan foydalanish huquqi, jamiyatda ekologik muhitning muhofazasi muhim ahamiyatni ifodalaydi desak bo'ladi. Ushbu huquq turi, inson faoliyatining tabiatga ta'siri va o'zgaruvchanligini nazarda tutib, boshqa obyektlar bilan solishtirib, ularni huquqiy tartibot asosida boshqarishni maqsad qiladi. Bunday qarorlarda, o'rmonlardan foydalanish turkumlarini aniqlash, ularni to'g'ri tartibga solish, muhofaza qilish va ekologik tasniflash maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. O'rmonlardan foydalanish huquqining belgilanishi, o'rmonlarning turkumlarini to'g'ri tahlil qilishni va ularni foydalanish tartibotini mustahkamlashni talab qiladi. Bunday huquqiy tartibotlar, inson faoliyatining ekologik va tabiiy resurslarga ta'siri va uning eng sodda, ayniqsa ehtiyotkor, muvofiqlik va ekologik ravishda to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, o'rmonlardan foydalanishning huquqiy tartiboti, insonlarning ekologik muhitga ta'sirini kuzatish, o'rmonlarning foydalanishini va muhofazasini nazorat qilish, shuningdek, ularni boshqa maqsadlar uchun ishlatishni cheklash, jamiyatning ekologik va tabiiy salomatligini ta'minlashga qaratilgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunda, barcha shaxslar, tashkilotlar va davlatning o'rmonlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir huquq va majburiyatlariga rioya etiladi. Bu esa ekologik tizimni mustahkamlash va muhofaza qilishda birlashgan choralar orqali inson faoliyatining qo'llanilishi bilan bog'liqdir. O'rmonlardan foydalanish turkumlari ko'p joylarda boshqa-boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi va har bir foydalanish obyektining alohida xususiyatlari mavjuddir.



Quyidagi turkumlar oʻrmonlardan foydalanishga misollar hisoblanadi: Daraxtzorlar va butazorlarni kesish: Bu turkum daraxtlarni yoki butazorlarni kesib olishni oʻz ichiga oladi. Misol uchun, mevalarni olish, yonma-yonchilar va mevalar uchun kerak boʻlgan materiallarni qoʻllash kabi maqsadlar uchun daraxtlarni kesib olish mumkin.

- Oʻrmondan qoʻshimcha foydalanish: Bu turkumda oʻrmonni kesib olish oʻz ichiga olmagan, balki uni boshqa maqsadlar uchun ishlatishni oʻz ichiga oladi. Misol uchun, asalari uyalari va qutilarini joylashtirish, mol boqish, pichan oʻrish va oʻrmon qoʻshimcha mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi.

- Oʻrmondan foydalanish ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun: Bu turkumda oʻrmonlar ilmiy va tadqiqot maqsadlari uchun foydalaniladi. Misol uchun, biologik tajriba, oʻrmon ekologiyasi oʻrganish, ekosistemalarni tahlil qilish kabi.

- Davlat oʻrmon fondi uchastkalaridan madaniy-magʻrifat, tarbiyaviy, sogʻlomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadlarda foydalanish: Bu turkumda oʻrmonlar jamoatga madaniymagʻrifat, tarbiyaviy faoliyatlar, sogʻlomlashtirish, dam olish joylari, ob-havo obʻektlari va estetik maqsadlar uchun foydalaniladi.

Har bir foydalanish obyektining alohida taʼrifini berish mumkin, ammo umumiy ravishda, ular oʻrmonlardan foydalanishning turkumlarini ifodalaydi va ularni muhofaza qilishni talab qiladi. Bu taʼriflar, oʻrmonlardan foydalanish huquqiy tartiboti va ekologik ravishda barqarorlikni taʼminlash uchun muhimdir. Qonunchilikka koʻra, yuridik va jismoniy shaxslarga har bir kesilgan daraxt va buta uchun kompensatsiya tarzida 10 tup qimmatligi jihatidan kesilgan daraxt va butalardan kam boʻlmagan yirik oʻlchamli (daraxt — 5 yillik, buta — 3 yillik) koʻchatni ekish hamda ularni kamida 2 yil davomida parvarish qilish boʻyicha qoʻshimcha majburiyat yuklatiladi. Bu taqiqlanish oʻrmonlar va ekologik muhitning muhofazasi va yangi daraxtlarning yaratilishi uchun muhimdir. Daraxtlar vabutalar oʻrmon resurslarining muhafazasida katta ahamiyatga ega. Bularni kesish uchun ruxsatnoma berilishida belgilangan tartibni bajarish yuridik va jismoniy shaxslarning oʻrmonlarni muhofaza qilish va yangi daraxtlarni ekishda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishiga imkon beradi. Bunda daraxt va butalarni kesish uchun ruxsatnoma



berilganligi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladigan yig'imni to'laganlik yuridik va jismoniy shaxslarni kompensatsiyaviy ekish hamda parvarish qilish majburiyatidan ozod qilmaydi. Bu o'rmonlarni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, va yangi daraxtlarni ekishning davlat tomonidan kafolatlanganligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan huquqiy taqiqlanishdir. O'rmonlardan foydalanishni tartibga soluvchi harakatdagi qonunchilikni tahlil qilish o'rmondan foydalanish huquqini amalga oshirishning huquqiy shakllarini ko'rsatib beradi. "O'rmon to'g'risida"gi qonunning mazmuniga binoan o'rmonlardan foydalanish huquqi doimo birlamchi bo'lib hisoblanadi. O'rmon xo'jaligi yurituvchi korxonalar hamma holatlarda o'rmonlardan birlamchi foydalanuvchi va egalik qiluvchi subyektlar sifatida harakat qiladilar. O'rmon fondi yerlari ijara asosida foydalanishga topshirilganida esa ijarachilar o'rmondan ikkilamchi foydalanuvchi bo'lib hisoblanadilar. Oldingi qonunlarga ko'ra, o'rmonlardan birlamchi subyekt sifatida foydalanayotganlar uni ikkilamchi foydalanish uchun berishlari mumkin emas edi. Endi esa tartib bir muncha o'zgardi. O'rmonlardan foydalanuvchilar tomonidan qonunda belgilangan tartibda yer uchastkalarini pichan o'rish va mol boqish, xizmat uchun chek yerlar berishlarini agar ular ijara shartnomasi asosida amalga oshirilsa, o'rmonlardan ikkilamchi foydalanish huquqi deb qarash mumkin. O'rmonlardan foydalanishga doirasida O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi tomonidan belgilangan qonun va tartibotlar mavjud. Bu tartibotlar asosida quyidagi asosiy ta'limotlar keltirilgan:

Foydalanishga berilishi: Davlat o'rmon fondi uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin.

Umumiy yoki maxsus foydalanish: O'rmondan foydalanish umumiy yoki maxsus bo'lishi mumkin. **To'lov:** O'rmondan maxsus foydalanish uchun to'lovlar miqdori va ularni undirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. **Doimiy va vaqtincha foydalanish:** O'rmondan foydalanish doimiy va vaqtincha bo'lishi mumkin. **Doimiy foydalanuvchilar:** O'rmon fondi yerlari o'zlariga doimiy foydalanishga berib qo'yilgan o'rmon xo'jaligi tashkilotlari o'rmondan doimiy foydalanuvchilardir. **Vaqtincha foydalanish:** O'rmondan



vaqtincha foydalanish qisqa muddatli (uch yilgacha) va uzoq muddatli (o'n yilgacha) bo'lishi mumkin. Foydalanish muddati: O'rmon fondining foydalanilmayotgan yerlari jismoniy va yuridik shaxslarga investitsiya shartnomasi yoki davlat-xususiy sheriklik asosida uch yildan kam bo'lmagan va qirq to'qqiz yildan oshmaydigan muddatga ijaraga berilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, o'rmon foydalanuvchilari doimiy yoki vaqtinchalik o'rmonlarni barqaror boshqarish va saqlashga qaratilgan muayyan huquq va majburiyatlarga ega. Bundan tashqari, o'rmondan foydalanuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin, ular vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishi va tahririyat mas'uliyatiga tortilishi mumkin.

O'rmonlardan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslari haqida so'z yuritadigan bo'lsak. O'zbekiston respublikasining o'rmon to'g'risidagi qonuning 32-moddasida keltirilganidek, o'rmondan maxsus foydalanish huquqi yuridik va jismoniy shaxslarga davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan foydalanish huquqi beriladi. O'rmonlarga tutashgan yerlar, garchi hozirda o'rmon o'simliklari bilan qoplanmagan, lekin o'rmon xo'jaligi maqsadlari uchun ajratilgan bo'lsa ham, rasman o'rmon fondi yerlari hisoblanadi. Ushbu o'rmon fondi yerlarining chegaralari qonun bilan belgilanadi va muayyan normativ hujjatlar bilan belgilanadi. O'rmon yerlari qonunchiligi jamg'armasi o'rmon xo'jaligini boshqarish bilan shug'ullanadigan turli manfaatdor tomonlarni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yordam davlat o'rmon xo'jaligi organlariga, davlat organlariga, tashkilotlarga, shuningdek o'rmon xo'jaligi bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu qo'llab-quvvatlashning maqsadi barqaror o'rmon boshqaruvi, asrash harakatlari va o'rmon xo'jaligi bilan bog'liq siyosat va tashabbuslarni amalga oshirishga yordam berishdir. O'rmon fondi yerlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat o'rmon xo'jaligi organlariga, davlat organlari, muassasalari va korxonalariga doimiy foydalanishga, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarga ijaraga berilishi mumkin.

Belgilangan qonunchilikka ko'ra, O'rmon fondining foydalanilayotgan yoki foydalanilmayotgan yerlarini ijaraga berish huquqi auksion orqali amalga oshiriladi.



Bu huquqni jismoniy va yuridik shaxslarga berishning asosiy shartlari va shakllari belgilangan. Ushbu yerlar investisiya shartnomasi yoki davlat-xususiy shartnomasi (DXSH) asosida 3 yildan kam bo'lmagan va 49 yildan oshmaydigan muddatga ijaraga berilishi belgilangan. O'rmon fondi yerlarining ijara shartnomalari qabul qilingan namunaviy shartnomaga muvofiq tuziladi. Bu shartnomalar ijaraga olinayotgan yerlar bilan bog'liq barcha shartlar va sharoitlar, muddatlar, to'lovlar va boshqa tafsilotlar haqida ma'lumotlar o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, shartnoma jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, fond va ijara beruvchilar o'rtasidagi boshqa muomalalar bo'yicha ham tavsiflanadi. Bu tartib o'rmon fondi yerlarini samarali va mavqei boricha foydalanish, ularni boshqarish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida kafolatlangan. Chegara zonasida o'rmondan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi. Bu tartibni tasvirlashda boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilinishi, o'rmon va uning resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiq qonun hujjatlariga amal qilinadi. O'rmondan foydalanish tartibi o'rmonning faoliyat sohasidagi huquqiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy talablarga rioya etishi lozim. Bu qonunlar va shartnomalar davlat vaqtinchalik rejimlari, yuklama va chegara shartlari, ekologik himoya talablari, o'rmondan foydalanish uchun litsenziyalash va ruxsatnoma taqdim etish tartibini, muvofiqlashtirilgan davlat organlari va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro shartnomalar esa mamlakatning o'zining chegara zonasidagi o'rmondan foydalanishni boshqarishda va uning ekologik ta'sirini boshqarishda kerakli amallarni belgilaydi. Bu shartnomalar xalqaro tashkilotlar, shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan imzolangan shartnomalar, aniq kelib chiqqan shartnomalar yoki muzokaralar yolu bilan amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'rmon fondi uchastkalaridan ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan foydalanishga qonunchilikda belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi. Bu tartib o'rmon resurslarining sifatini muhofaza qilish, turizm faoliyatini rivojlantirish, mamlakatning iqtisodiyotini kuchaytirish, turizm sohasidagi bozor raqobatini oshirish, shuningdek, ekologik turizmni



mustahkamlash maqsadlariga rioya etishni ta'minlaydi. Qonunlar va shartnomalar yuridik va jismoniy shaxslarning o'rmon uchastkalari ustida turizmni amalga oshirish uchun kerakli barcha litsenziyalash, ruxsatnoma olish, chegara va shartlarni belgilab beradi. Shu bilan birga, turizm faoliyatini amalga oshirishda ekologik ta'sirini minimal darajada tashkil etish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish ham ko'rsatiladi. Bu tartibning amalga oshirilishi davlatning ekologik turizm sohasidagi strategiyasiga, qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq ravishda bo'ladi. "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasi amalga oshirilish uchun bir nechta muhim qadamlar bilan yuritiladi. Moliya mablag'larining jalb etilishi: 2023 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasi bilan Xalqaro taraqqiyot uyushmasi o'rtasida bitim imzolangan, loyiha uchun 30 yil muddatga jami 142 million AQSH dollari miqdorida qarz mablag'lari jalb etildi. Buning yanada, O'zbekiston Respublikasi bilan PROGREEN trust jamg'armasi hamda Koreya Respublikasining KWPF jamg'armasi o'rtasida tuzilgan grant bitimlari doirasida jami 11 million AQSH dollari miqdorida grantlar jalb etildi.

Xalqaro ishtirok: Davlat rahbarining buyrug'i bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda O'rmon xo'jaligi agentligi loyihaning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi, muvofiqlashtirilishi va boshqarilishi hamda jalb etilgan qarz mablag'lari va grantlardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, loyihani amalga oshirish davrida monitoring va hisobot yuritilishi uchun mas'ul ijro etuvchi organlar hisoblanadi. Loyiha tashkili: Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihagini amalga oshirish guruhi o'rmon xo'jaligi agentligi huzurida tashkil etildi. Texnik-iqtisodiy parametrlar: Loyiha bo'yicha Xalqaro taraqqiyot uyushmasining qarz mablag'larini jalb etish va qaytarish miqdorlari, foydalanish va qaytarish rejasi, komissiya va foiz to'lovlarini to'lashning prognoz jadvali, "yo'l xaritasi" va boshqa texnik-iqtisodiy parametrlar belgilandi. Amalga oshirishning yo'li: Loyiha doirasida Jizzax, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tasdiqlandi. Bu qadamli tartib yordamida, "O'zbekistonda barqaror o'rmon



landshaftlarini tiklash" loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi va davlatning o'rmon resurslarini samarali boshqarish va ekologik turizmni rivojlantirishda qadam daromadiga aylanadi. O'rmon xo'jaligi agentligi markaziy apparatiga 2023 yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 909 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,9 foizga kamaygan. Bu, o'rmon xo'jaligi sohasidagi ko'p tomondan kelib chiqqan muammolar va savollarga javob topish uchun o'rmon xo'jaligi agentligi bilan bog'liq tashkilotlar orqali qo'llab-quvvat olinishining, shuningdek, o'rmon xo'jaligi sohasida o'zaro ishbilarmonlikning oshishining bir ko'rsatgichidir. Murojaatlarning ko'p tomondan kelib chiqishi, o'rmon xo'jaligi sohasidagi muammolar va yangi loyihalar bo'yicha tashkilotlar vajismoniy shaxslar o'rtasidagi hamkorlikni ko'rsatadi. Bu esa o'rmon xo'jaligining turli asoslarida, shuningdek, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy taraqqiyotini ko'paytirishda hamda o'rmon resurslarini samarali boshqarishda ko'maklashadi. Qonunchilikka ko'ra, uy sharoitida yoki kasanachilik asosida daraxt va buta ko'chatlarini (nihol) yetishtirish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) hisoblanadi. Bu, o'rmonlar yoki uy xo'jaligi hududida o'zlarining moliyaviy yoki iqtisodiy istiqomatlariga ko'ra daraxt va buta ko'chatlarini yetishtirishga va ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ko'rsatishga ruxsat etilishi demakdir. Sinov tariqasida o'rmon xo'jaliklari hududida ko'chat yetishtirish, ekilgan ko'chatlarni parvarishlash, o'rmonzorlar barpo etish ishlari autsorsing asosida jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etgan holda amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlangan usullar orqali o'rmon xo'jaliklari xususiy xizmatlarni qabul qiladi va ularni boshqarish, amalga oshirish va rivojlantirish uchun xizmatlarni taqdim etuvchi shaxslardan foydalanadi. Shuningdek, o'rmon xo'jaliklarida ko'chat yetishtiruvchi pitomniklarni tashkil etish maqsadida, xo'jaliklar hududlarining uzoq muddatli ijaraga beriladigan uchastkalari belgilanadi. Bu qadam o'rmon xo'jaligining ko'chatlar bilan bog'liq muammolarini hal qilish va daraxtlarni rivojlantirish uchun strategik tashkilotlar va shaxslar bilan hamkorlik qilishni ta'minlaydi.



O'rmon xo'jaligida qo'shimcha tarmoqlarni rivojlantirish hisobiga yalpi daromad 290 mlrd so'mni tashkil etdi va 10 mingta yangi ish o'rni yaratildi AOKAda o'tkazilgan brifingda O'rmon xo'jaligi agentligi axborot xizmati rahbari Otabek Ashurov sohada 2022 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot berdi: Shuningdek, o'rmon fondining foydalanilmayotgan 7 ming ga yer maydoni o'zlashtirilib, oborotga kiritildi, 2,3 ming ga yer maydoni jismoniy va yuridik shaxslarga uzoq muddatga ijaraga berildi. Bu amal o'rmon xo'jaligining potentsialini samarali foydalanishni oshiradi va yangi ish o'rni yaratishga imkon beradi. Jami 113 million dona tuproq-iqlim sharoitga mos turdagi manzarali, mevali daraxt hamda butalarning nihol va ko'chat yetishtirildi. Bu, o'rmonlar va ekologik muhitning muhofazasi va yangi daraxtlarning yaratilishi uchun muhimdir, shuningdek, biosferani muhofaza qilishga ham ko'maklashadi. Bundan tashqari, "Yashil hudud" DUK va uning hududiy korxonalarini hamda mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari" tashkil etilishi bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Bu proyektlar jamiyatning ekologik xavfsizlik va insonlarning foydalanish joylarini yaratishga qaratilgan, shuningdek, insonlarga tabiat bilan yaqinlashish va tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-apreldagi "O'rmon to'g'risida"gi O'RQ-745-sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2018-y., 03/18/475/1078-son.
2. O'rmon huquqi. Darslik. M.X.Rustamboyev. Toshkent 2003.
3. Ekologiya huquqi: Davlat ekologik nazorati. O'quv qo'llanma, Xolmurod Nazarov. Toshkent 2022.
4. Avtoreferat. O'zbekistonda biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. N.O.Xolmamatovich. Toshkent 2020.
5. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. O'quv qo'llanma, S.Q.Qahhorov, H.O.Jo'rayev, Y.Y.Jamilov, N.M.Hamdamova.



6. Law and Philosophy. Selected Papers in Legal Theory. Csaba Varga. Budapest, AKAPRINT Nyomdaipari Kft., 1994 - 530.

7. <https://uzzamin.uz/uz/magazines/2-2025-2025/ormon-xojaligi-yerlaridan-foydalanishning-bugungi-kundagi-ahamiyati-uzzamin>.

8. Mirzayev M. (2018). O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi yerlarida o‘rmon xo‘jaligi va agro-o‘rmonchilik tizimlari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi.

9. Urmon.gov.uz

10. miit.uz

11. insonhuquqlari.uz

12. data.egov.uz